


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 34 094,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.












O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



Yalpi hududiy mahsulot


(2024- yil yanvar-iyun holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2023- yil nisbatan, % hisobida
	2023-yil	2024-yil	
 Yalpi hududiy mahsulot, jami	29 016,5	34 094,2	106,2
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 264,5	33 364,4	106,3
 Mahsulotlarga sof soliqlar	752,0	729,8	103,7
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 264,5	33 364,4	106,3
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 429,4	10 487,2	104,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 266,6	8 955,8	108,5
 sanoat	5 333,2	6 788,4	108,7
 qurilish	1 933,4	2 167,4	107,9
 Xizmatlar	11 568,5	13 921,4	106,1
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 282,5	2 704,8	110,4
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 658,1	2 012,2	108,7
 boshqa xizmatlari	7 627,9	9 204,4	104,3

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati-104,8 %, (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda – 108,7 % (20,3 %), qurilishda – 107,9 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 106,1 % ni (41,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,7 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % dan (27,7 %) iborat bo'ldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 31,4 %ni, sanoat tarmog'i 20,3 %ni, qurilish 6,5 %ni va xizmatlar sohasi 41,8 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 41,8 %ni tashkil etdi va 2023- yil (40,9 %) bilan taqqoslanganda 0,9% punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

(yanvar-iyun holatiga, jamiga nisbatan foizda)




Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,1 %ni (2023- yil- 8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0 %ni (5,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 27,7 %ni (26,9 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-iyun, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 8 356,2 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (7 262,5 ming so‘m) mos davriga nisbatan 4,0 %ga o‘tdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 68,0 %ni tashkil qildi.


2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyun oyida YaHM deflyatori indeksi 2023-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 117,1 % va xizmatlar sohasida – 115,7 % ni qayd etildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %da


2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,0 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 67,1 %) tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–iyun holatiga

Hududlar	YaHM mlrd. so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2023- yil	2024 - yil	%	2023- yil	2024- yil	%
O‘zbekiston Respublikasi	473 790,7	567 364,3	106,4	13 088,6	15 347,9	104,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13 444,7	15 748,8	105,7	6 785,1	7 839,5	104,3
Andijon	27 529,3	33 056,1	107,2	8 246,2	9 695,6	105,0
Buxoro	22 800,1	25 663,4	106,3	11 304,5	12 513,2	104,5
Jizzax	13 841,7	16 169,3	107,0	9 332,3	10 675,6	104,8
Qashqadaryo	25 857,0	29 839,8	106,0	7 390,5	8 341,2	103,7
Navoiy	37 162,5	48 328,2	108,8	35 045,7	44 744,2	106,8
Namangan	19 583,9	23 403,3	107,0	6 500,0	7 597,2	104,6
Samarqand	30 921,8	36 921,1	106,1	7 471,7	8 730,9	103,9
Surxondaryo	18 600,2	21 381,9	105,4	6 592,8	7 392,7	102,9
Sirdaryo	9 110,6	10 890,0	105,1	10 115,0	11 862,7	103,1
Toshkent v.	48 391,8	58 076,5	107,4	16 093,6	18 944,6	105,4
Farg‘ona	29 016,5	34 094,2	106,2	7 262,5	8 356,2	104,0
Xorazm	15 683,7	18 337,2	105,4	7 981,9	9 157,6	103,5
Toshkent sh.	83 919,8	107 661,5	110,2	28 170,5	35 206,5	107,4

YaHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyun oylarida–1,4 f.p.), sanoat tarmog‘i –1,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog‘i –0,5 f.p. (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 1,1 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi–2,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida– 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda– 117,1 % va xizmatlar sohasida – 115,7 % qayd etildi.